

NIZOM

1. Bolalar saratoni bo'yicha Xalqaro akademik hab — bu tibbiy ta'lim, fan va amaliyotni xalqaro platformada integratsiyalash maqsadida tashkil etilgan ilg'or davlat ta'lim va ilmiy muassasasi hisoblanadi.

2. Bolalar saratoni bo'yicha Xalqaro akademik hab o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, O'zbekiston tomonidan tan olingan xalqaro shartnomalar, ushbu Ustav va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiradi.

3. Bolalar saratoni bo'yicha Xalqaro akademik habning muassisi — Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi bo'yicha ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (keyingi o'rinlarda — Markaz) hisoblanadi.

4. Bolalar saratoni bo'yicha Xalqaro akademik hab pediatrik onkologiya va unga yaqin yo'nalishlarda tibbiyot kadrlarini tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar olib borish va innovatsion rivojlanishni ta'minlashda eng yaxshi milliy va xalqaro tajribalarni birlashtiruvchi ko'p funksiyali platforma sifatida tashkil etiladi.

5. Bolalar saratoni bo'yicha Xalqaro akademik habning joylashgan manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Arnasoy ko'chasi, 2-kvartal, 32-uy.